

TA'LIM MUASSASALARIDA MIRTEMIR LIRIKASINING O'RGANILISHI

Saidova Xosiyat

Samarqand viloyati, Samarqand shahri

30- maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yorqin vakili, yuksak so'z ustasi, eskirmas tuyg'ular kuychisi Mirtemir she'riyatining ta'lim muassasalarida o'qitilishi hamda bu noyob lirikaning yosh avlod ma'naviy tarbiyasidagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: she'riyat, poetik tasavvur, ilg'or ta'lim texnologiyalari,

Inson yuragi ham bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She'riyat yurak sadosi bo'lganidan ana shu murakkab tuyg'ular olamini ifoda qiladi. Shuning uchun ham bir she'rni o'qib quvonsak, ko'ksimiz g'urur va iftixor tuyg'ulariga to'lsa, ikkinchi bir sher'ni o'qib xayolga tushamiz, inson dardlariga oshno bo'lamiz¹. Shu tufayli adabiyot insonshunoslik deb ham yuritiladi. Darhaqiqat, adabiyot insonning poetik tasavvurini hamda Alloh tomonidan in'om etilgan buyuk ne'mat-tafakkurni boyitish imkonini beradi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida adabiyot darslarini tashkil qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Adabiyot darslarida ilg'or ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar hamda darsning jonli va samaraliligini ta'minlaydigan ijodiy usullardan foydalanish bugungi kunimizning dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bizga ma'lumki, adabiyotning bosh vazifasi yosh avlodda komil inson sifatlarini shakllantirishdir. O'z o'rnida pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifasi ham har bir o'quvchida mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirish, rivojlantirish sanaladi. Bundan tashqari ta'lim tizimida bir qator natijalarga erishish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. O'qituvchining mahorati esa darsni aniq rejalashtirishda ko'rinadi. Ayniqsa, adabiyot darslarini yaxshi tashkil qilish ta'lim oluvchilarning milliy tafakkurini yanada yuksakka ko'taradi.

Adabiyot- so'z san'ati, shoir – san'atkor. San'at, san'atkordan, avvalo, nima talab qilinadi? Obrazli tasvir mahorati. Poetik tasvirda o'ziga xoslik va yangilikka erishilmasa, she'rxonning ko'ngliga yo'l ochish, fikr-tuyg'ularini yangilash quruq da'voligicha qolaveradi². O'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan, eskirmas tuyg'ular kuychisi Mirtemir o'zining bebaho she'rlari bilan minglab o'quvchilar qalbini maftun etdi. "Mirtemir ijodi o'zbek she'riyati taraqqiyotida o'ziga xos hodisadir. Bu o'ziga xoslik shoir iste'dodining betakrorligida namoyon bo'ladi. Har qanday chin talant takrorlanmasdir. Takrorga bo'y bermagan iste'dodgina talantga aylana oladi. Mirtemir olam hodisalari va odam ruhiyatini hech kim payqamaydigan yo'sinda ko'radi, boshqalarga o'xshamagan alpozda ta'sirlanadi, o'zgacha bir mantiq bilan izohlaydi, hech kim qilolmaydigan shaklda tasvir etadi. Buning sababi shundaki, Mirtemir o'ziga xos odam edi. Uning she'riyatidagi etakchi belgilar ham ana shu o'ziga xoslikning natijalari bo'ldi"³. Zero, shoir ijodi o'zining mohiyat e'tibori bilan nafaqat bir shaxs yoki millatga, balki butun insoniyatga tegishlidir. Ularda jahoniy dard, fikr va hikmat mavjud.

Mirtemir ijodida milliy adabiyotimizning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari o'z aksini topgani bois uning she'riyatini o'rganishga, she'rlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. "Chin badiiy iste'dod egasi Mirtemir millatning hayotini, yashash tarzini bilishning o'zi bilan kifoyalanmaydi. U xalq hayotini muayyan shaxslarning taqdiriga aylantiradi, ularning kechinmalarini tasvirlash asnosida nurlantiradi va unga ma'no yuklaydi. "Qishlog'im" she'rida Mirtemir talantining shu jihatlari yaqqol namoyon bo'lgan deyishimiz mumkin:

Qay qo'raga kirsang, eshigi ochiq

¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/yozuvchilar-adabiyot-to'g'-risida>

² Белинский В.Г. Танланган асарлар. Ўзбекистон Давлат нашриёти. Тошкент-1955.287-б

³ Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. T.,2018. - B.58.

Bir nima tatiysan, qo'ymas, aslo och.

Qoraqumg'on qaynar, yozilur chochiq,

Zog'orami, so'kmi, yovg'on yo umoch.

Borini ayamas, borini qo'yar,

Yupqami yo go'ja, talqon, qo'g'irmoch,

Qurutmi yo jiyda – o'rtaq uyar...

Shoir xulosa bermay, xolis tasvir bilan kifoyalanadi. Ammo tasvir shunday sirqiraki, unda qishloqdoshlarning bir qadar g'arib tirikchiligi, lekin tanti tabiati yaqqol namoyon bo'ladi"⁴. Mirtemir she'riyatining bosh belgisi xalqimizga xos bo'lgan xususiyatlarni xalqona yo'sinda ifodalash bo'lgani bois uning she'rlari ta'lim muassasalarida chuqur tahlil qilinishi lozim.

Mirtemir she'riyatini o'rgatishda dars davomida bir qator interfaol usullardan foydalanish mumkin. Shoir she'rlarini qiyoslash metodi orqali o'rgatishda shoirning boshqa ijodkor bilan aynan bir xil mavzuda yozilgan she'ri tahlil ostiga olinadi:

Na oltin, na javohir edim...

Armonli bir yosh shoir edim.

Zuhro bo'lmasang ham chiroyda,

Men ishqingda naq Tohir edim.

Toshlon o'ldi, degan kim axir?

Gulday so'ldi, degan kim axir?

Nahot poymol qutlug' ishq ahdi,

Bol bo'lurmi shunchalar taxir?

Barchinoyday kutganing qani?

Zardob-u qon yutganiig qani?

Umr yo'lida to yumguncha ko'z,

Birga-birga ketganing qani?

Gunohim ne?—Jangda bo'lganim,

Qon kechganim, yuz bor o'lganim.

Diydoringni unutmayin,

O'limlardan hatlab ketganim...

Mening kimligimni

Bilmaydi hech kim

Men bir g'alatiman,

Men – alohida.

Ko'zimning yoshini

Keladi ichgim,

Tilimni chaynagim

Keladi gohida.

Oy mening yelkamga

O'tirib olgan.

Oftob g'avg'o solar

Yurgan yo'limga.

Xayol tushovidan

Chiqolmay qolgan

Umrinni topshirib

Qo'ydim ko'nglimga.

Mirtemir "Surat"

Muhammad Yusuf "Surat"

Qiyoslash metodi orqali she'rlar tahlil qilinganda ikki ijodkorning poetik uslubi, obraz yaratish mahorati hamda badiiy –tasvir vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Bu metodning afzalligi shundaki, u o'quvchini qiyoslash, taqqoslash orqali mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

"Tushunchalar tahlili" metodi adabiyot darslarida, ayniqsa, lirik asarlarni tahlil qilishda yaxshi samara beradi.

Mirtemirning "Qishlog'im" she'rini o'rganishda bu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin:

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?
UMOCH	Xamirni uvalab solib pishiriladigan su-yuq ovqat
GO'JA	Oq jo'xori yoki qayroqi bug'doydan tayyorlanadigan suyuq taom

O'quvchilar "Tushunchalar tahlili" metodi orqali she'r matnida uchraydigan tushunarsiz so'zlarning izohlarini bilib oladilar. Bu esa lirik asarni yana-da teran anglab olish imkonini beradi.

⁴ Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. T.,2018. - B.64.

Xullas, adabiyot darslarida ijodkor lirikasini yangi pedagogik texnologiyalar yordamida o'rgatish asnosida o'quvchilarning poetik tafakkurlari yuksaladi, qolaversa, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, qalb kechinmalarini ilg'ash ko'nikmalari paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Белинский В.Г. Танланган асарлар. Ўзбекистон Давлат нашриёти. Тошкент-1955.287-б
2. Yo'ldoshev Q. So'z yulqini. T.,2018. – 504 b.
3. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Kamalak, 2016. – 464 b.